

Aviatsiya endi yanada yaqinroq!

2026 11 Sentabr

Yosh aviatsiya ixlosmandlari uchun o'tkazilgan tanlov g'oliblari uzoq kutilgan sovrinni qo'lga kiritdilar – Uzbekistan Airways O'quv-mashg'ulot markaziga tashrif buyurib, aviatsiya trenajyorlarida o'z kuchlarini sinab ko'rdilar.





Bolalarning ba'zilari allaqachon o'z kasbini aviatsiya bilan bog'lashga tayyorgarlik ko'rmoqda, ba'zilari uning tarixiga qiziqmoqda yoki aviamodelchilik bilan shug'ullanmoqda. Ammo ularni bir narsa – aviatsiyaga bo'lgan haqiqiy qiziqish birlashtiradi.



Bugun esa ularda uchuvchi o'rindig'idan joy olish, havo kemasini boshqarishni sinab ko'rish va mutlaqo yangi taassurotlar olish imkoniyati paydo bo'ldi.



Haqiqatan ham aviatsiyani yaxshi ko'radiganlar uchun mukofot mana shunday bo'lishi kerak, shekilli.